Yashil iqtisodiyot hozirgi global va ekologik inqirozlarga potensial yechim sifatida keng e'tirof etilmoqda hamda barqaror rivojlanishga erishishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda yashil texnologiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurslardan samarali foydalanish, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash va yashil infratuzilmalarni rivojlantirishga katta miqdorda investitsiyalar yo'naltirilmoqda.

"Yashil iqtisodiyot" atamasi ilk bor David Pearce va hammualliflar tomonidan 1989-yilda chop etilgan "Blueprint for a Green Economy" nomli kitob sarlavhasida qo'llanilgandir [1]. Biroq ushbu kitobning o'zida "yashil iqtisodiyot" tushunchasiga aniq ta'rif berilmagan bo'lib, asosan barqaror rivojlanish konsepsiyasiga e'tibor qaratilgan.

"Yashil iqtisodiyot" atamasi 2007–2008-yillardagi global moliyaviy inqirozdan so'ng keng ommalasha boshladi va qisqa vaqt ichida siyosiy kun tartibining eng muhim mavzularidan biriga aylandi. Moliyaviy inqiroz ko'plab mamlakatlarni iqtisodiy tanazzul va yuqori qarzdorlik holatiga olib keldi, shuningdek, ommaviy ishsizlik



hamda ko'plab korxonalarning bankrot bo'lishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, oziq-ovqat va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat inqirozi yanada kuchaydi.

Mazkur jarayonlar inson faoliyati, ayniqsa, qazib olinadigan yoqilg'ilardan tobora ko'proq foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlari haqidagi xavotirlarning ortishi bilan bir davrga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, ushbu inqirozlar ekologik degradatsiyaning kengayib borishi hamda uning insonlarning turmush darajasi va yashash sharoitlariga salbiy ta'siri kuchayib borayotgan bir sharoitda yuz berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, xorijiy tajribalarni umumlashtirish hamda deduktiv-induktiv yondashuv usullaridan foydalanildi. Xalqaro tashkilotlar (UNEP, Jahon banki), Yevropa Ittifoqining rasmiy hujjatlari, O'zbekiston Statistika agentligining ma'lumotlari va ilmiy nashrlar tahlilning asosiy axborot bazasini tashkil etdi.

Maqolada birinchi marta O'zbekiston eksporti uchun CBAM ta'sir qiluvchi tarmoqlar va xavf-xatarlar aniq raqamlar asosida tahlil qilingan; Germaniya, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasining eksport natijalari miqdoriy ko'rsatkichlarda ko'rsatilgan; O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish orqali eksport raqobatbardoshligini oshirishning amaliy modeli taklif etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiy yondashuvlardan ajratib turadigan asosiy jihati bu uning atrof-muhitga bo'lgan munosabatidir. Yashil iqtisodiyotga turli xil ta'riflar berilgan bo'lib, quyidagi jadvalda ularni ko'rishingiz mumkin. Mazkur model an'anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda "ko'proq ishlab chiqarish" emas, balki "samarali va ekologik xavfsiz ishlab chiqarish" g'oyasiga asoslanadi. Quyidagi jadvalda xalqaro va mahalliy tashkilotlarning yashil iqtisodiyotga ta'riflari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.

Xalqaro va mahalliy tashkilotlar tomonidan yashil iqtisodiyotga berilgan ta'riflar

Tashkilot / Manba	Yashil iqtisodiyot ta'rifi
UNESCO (2010)	Insonlarning farovonligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga atrof-muhitga bo'lgan tahdidlarni kamaytiruvchi, past uglerodli, resurs tejovchi va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiy faoliyat shakli [2].
UNEP (2018)	Kam uglerodli, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiyot. Bandlik va daromadlarning o'sishi ekologik investitsiyalar hisobiga ta'minlanadi [3].
Zhironkin, Cehlár (2022)	To'rtinchi sanoat inqilobining mahsuli bo'lgan, nol emissiyali energiya ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash va yashil urbanizatsiyani o'z ichiga oluvchi resurs samaradorligining zamonaviy usuli [4].
Jahon banki	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ekologik xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish jarayoni [5].
Mirzaaliyev A. (2026)	Iqtisodiy rivojlanishni ekologik xavfsizlik va resurslarni tejash tamoyillari asosida tashkil etish. Ishlab chiqarish jarayonlari atrof-muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladi, energiya samaradorligi oshiriladi [6].

Manba: Jadval turli manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari so'nggi ikki yilda yuqori o'sish sur'atini namoyish etmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda tashqi savdo aylanmasi 81,17 mlrd dollarga yetdi — bu 2024-yilga nisbatan 20,7 foizlik o'sish bo'lib, oldingi yilning o'sish sur'atidan (5,8 foiz) sezilarli yuqoridir [7].

Eksport hajmi 2025-yilda 33,8 mlrd dollarga yetib, 2024-yilga nisbatan 24 foizga o'sdi. 2024-yilda esa eksport 26,94 mlrd dollarni (2023-yilga nisbatan +8,4 foiz) tashkil etgan edi. Shunday qilib, ikki yil ichida eksport hajmi deyarli 10 mlrd dollarga ko'paydi.

Biroq bu raqamlar ortida bir qator tizimli muammolar yashiringan:



– Oltin eksportiga haddan tashqari bog'liqlik. 2025-yilda oltin umumiy eksportning 29,3 foizini va tovarlar eksportining 41,2 foizini tashkil etdi (9,9 mlrd dollar). Oltinsiz eksport atigi 23,9 mlrd dollar — bu o'sish ko'p jihatdan xomashyoga bog'liq ekanini ko'rsatadi.

– Sanoat mahsulotlari ulushining kamayishi. Sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi 2024-yildagi 15,3 foizdan 2025-yilda 11,8 foizga tushdi. Bu raqobatbardosh sanoat eksportining to'liq rivojlanmayotganini ko'rsatadi.

– To'qimachilik eksportining qisqarishi. 2025-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2,6 mlrd dollar bilan 8,2 foizga pasaydi — bu strategik tarmoq uchun jiddiy muammo hisoblanadi [8].

– Savdo balansining salbiy saldosi. 2025-yilda tashqi savdo defitsiti 13,5 mlrd dollarni tashkil etdi (2024-yilda 12,7 mlrd dollar). Import o'sib borayotgan bo'lsa-da, qo'shimcha qiymat yaratuvchi eksport sektori hali to'liq shakllanmagan.

Ijobiy tendensiyalar ham mavjud: noorganik kimyoviy moddalar eksporti 35,4 foizga o'sib, 1,2 mlrd dollarga yetdi; o'g'itlar eksporti 30,8 foizga oshib, 467,5 mln dollarga ko'tarildi; cho'yan va po'lat eksporti 15,5 foizga o'sdi. Meva-sabzavotlar eksporti esa qiymat jihatidan 2,1 mlrd dollarga yetib, 36,9 foizga oshdi — bu tarmoqda organik yo'nalishning potentsiali yuqori ekanini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqining Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM) 2026-yil 1-yanvardan to'liq kuchga kirdi. 2023–2025-yillar o'tish davri hisoblanib, ushbu davrda faqat hisobot majburiyati joriy etilgan edi. Endi mexanizm moliyaviy majburiyatga aylandi: yuqori uglerod izi bilan ishlab chiqarilgan import mahsulotlarga qo'shimcha to'lovlar belgilanadi [9].

CBAM hozirda olti tarmoqni qamrab oladi: temir va po'lat, alyuminiy, sement, o'g'it, elektr energiyasi va vodorod. 2028-yildan kimyo sanoati va metallar asosidagi mahsulotlarni ham qamrab olish rejalashtirilgan.

O'zbekiston eksporti uchun CBAM (Carbon Border Adjustment Mechanism) mexanizmining joriy etilishi bir qator jiddiy xatarlarni yuzaga keltirmoqda.

Birinchidan, metallurgiya sanoati (po'lat va alyuminiy mahsulotlari) CBAM tartibga solish mexanizmi doirasiga to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan tarmoqlardan hisoblanadi. Agar mahalliy korxonalarda uglerod emissiyalarini hisobga olish va sertifikatlashtirish tizimlari joriy etilmasa, Yevropa Ittifoqi bozoriga eksport qilinadigan mahsulotlar uchun qo'shimcha karbon to'lovlari yuzaga keladi. Natijada mahsulot tannarxi oshib, uning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi pasayadi. Bu holat, ayniqsa, 2025-yilda 202,2 mln AQSh dollariga yetgan O'zbekiston po'lat eksporti hajmi uchun sezilarli xavf tug'diradi.

Ikkinchidan, o'g'it sanoati ham CBAMning bevosita ta'sir doirasiga kiradi. 2025-yilda mamlakatning o'g'it eksporti hajmi 467,5 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, ushbu mahsulotlar uchun uglerod emissiyalari bo'yicha hisobot yuritish va monitoring tizimini joriy etish majburiy talabga aylanmoqda. Bu esa korxonalar zimmasiga qo'shimcha ma'muriy xarajatlar yuklaydi hamda ekologik samarador texnologiyalarga investitsiyalar kiritishni talab qiladi.

Uchinchidan, to'qimachilik sanoatiga CBAMning ta'siri hozircha bilvosita xarakterga ega. Mazkur tarmoq CBAMning amaldagi ro'yxatiga kiritilmagan bo'lsa-da, Yevropa bozorlarida ekologik standartlar va barqaror ishlab chiqarish talablari tobora kuchayib bormoqda. Xususan, GSP+ preferensiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ham ekologik va ijtimoiy standartlarga rioya etish bilan chambarchas bog'lanmoqda. Shu sababli, 2025-yilda 2,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan to'qimachilik eksportining kelgusida qisqarish xavfi korxonalarining ushbu talab va standartlarga moslashish darajasiga bog'liq bo'ladi.

To'rtinchidan, investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq xatarlar kuchaymoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar, banklar va investorlar tomonidan ESG (Environmental, Social and Governance) mezonlariga rioya etish talablari tobora qat'iyilashib bormoqda. Natijada yashil sertifikatlash tizimlariga ega bo'lmagan hamda ekologik barqarorlik ko'rsatkichlari past bo'lgan korxonalar xalqaro moliyalashtirish manbalaridan foydalanish, kredit olish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muayyan cheklolarga duch kelishi mumkin.

Mazkur muammolarning ildizi O'zbekiston sanoatining tarkibiy xususiyatlari bilan bog'liq. Xususan, ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sig'imining yuqoriligi, eskirgan va resurslarni ko'p talab qiluvchi texnologiyalarning keng qo'llanilishi hamda korxonalarda uglerod emissiyalarini hisobga olish va monitoring qilish tizimlarining yetarli darajada shakllanmaganligi eksport qiluvchi tarmoqlarning yangi ekologik talablarga moslashishini murakkablashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, CBAMni faqatgina tashqi savdo cheklovi yoki qo'shimcha xarajat manbai sifatida emas, balki milliy sanoatni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va past uglerodli iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantiruvchi muhim tashqi omil sifatida ham baholash mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda ushbu mexanizm korxonalarni xalqaro ekologik standartlarga moslashishga undab, O'zbekiston mahsulotlarining global bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Yashil iqtisodiyotning eksport raqobatbardoshligiga ta'sirini amaliy baholash uchun uchta yetakchi davlat — Germaniya, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasini eng yangi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan tahlil qilamiz (2-jadval).



2-jadval.

Germaniya, Xitoy va Janubiy Koreyada yashil iqtisodiyotning eksport raqobatbardoshligiga ta'siri: qiyosiy tahlil

Ko'rsatkich	Germaniya tajribasi	Xitoy tajribasi	Janubiy Koreya tajribasi
Asosiy yashil siyosat	“Energiewende” — 2030-yilga elektr energiyasining 80 foizini qayta tiklanuvchi manbalarga o'tkazish maqsadi; 2024-yilda 59 foizga erishildi.	Xitoy quyosh panellari va elektromobillar ishlab chiqarishda jahon lideriga aylandi “Yangi uchlik” (quyosh panellari, litiy batareyalari, elektromobillar) — 2025-yilda Xitoy dunyo EV sotuvlarining 52 foizini egalladi	Janubiy Koreya “Yashil o'sish strategiyasi” asosida ekologik innovatsiyalarni rivojlantirdi. “Yashil o'sish strategiyasi” va “Uglerod neytrallik 2050” rejasi; 2025-yil iyundan yangi ma'muriyat qayta tiklanuvchi energiyani kengaytirish yo'lini kuchaytirayapti
Yashil texnologiyalar eksporti	2023-yilda GreenTech eksporti 132 mlrd yevro — umumiy eksportning 8,4 foizi; 2045-yilga bu ko'rsatkich ikki baravar o'sishi prognoz qilinmoqda [10].	2024-yilda yashil texnologiyalar eksporti 177 mlrd dollar; 2025-yil avgustda yangi rekord — oylik eksport 20 mlrd dollar; EV eksporti yanvar–avgust 2025 da 26 foizga o'sdi [11].	Yashil sanoat eksporti 2027-yilga 67,18 mlrd dollar maqsad; 2025-yil uchun 268,8 mln dollarlik yashil eksport fondi tashkil etildi [12].
Batareyalar va EV	Germaniya Xitoydan batareyalar importida yetakchi: 2025-yilda 10,5 mlrd dollarlik import. O'z GreenTech sektori ham kuchaymoqda: Siemens, Linde, Enercon global yetakchilar [13].	2025-yilning dastlabki 9 oyida batareyalar eksporti 24 foizga o'sdi, jami 60 mlrd dollar — 2024-yildagi 48 mlrd dollardan ko'p. Batareyalar quyosh panellarini ortda qoldirdi [14].	Janubiy Koreya CATL va BYD raqobatida o'z EV batareyalari eksporti uchun yangi bozorlarni qidirayapti; SMR reaktorlari 2030-yildan eksport dasturida.
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	2024-yilda elektr energiyasida qayta tiklanuvchi manbalar ulushi 59 foiz (2023-da 51,8 foiz edi). 2030-yilga 80 foiz maqsad.	Quyosh panellari ishlab chiqarishning 80 foizi va EV ishlab chiqarishning 70 foizi Xitoy ulushiga to'g'ri keladi (2024). 2025-yilda quyosh PV eksporti yangi rekordda: faqat avg oyida 46 GVt.	2024-yilda qayta tiklanuvchi energiya ulushi 10,6 foizga yetdi (2018-da 4,99 foiz edi). 2030-yilga 21,6 foiz, 2038-yilga 32,9 foiz maqsad.
Bandlik va YalM ulushi	GreenTech sektorida 3,4 mln kishi band — avtomobilsozlikdan 3 marta ko'p; sektor YalMning 9 foizini (314 mlrd yevro) yaratadi.	Yangi energiya sanoatida millionlab ish o'rni; BYD 2025-yilda Tesla va boshqa raqiblarni ortda qoldirib yetakchiligi kuchaymoqda.	2025-yil byudjetida qayta tiklanuvchi energiya yo'nalishiga 594,5 mlrd vonga ko'proq ajratildi; 2030-yilga 1 mln yashil ish o'rni maqsad qilingan.

Manba: Jadval turli manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini izchil va uzoq muddatli strategiya asosida amalga oshirayotgan davlatlar xalqaro savdoda nafaqat eksport hajmini oshirishga, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini kengaytirishga ham erishmoqda. Jumladan, Germaniya yashil texnologiyalar (GreenTech) eksporti bo'yicha 132 mlrd yevrolik ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, Xitoy 2025-yilda batareyalar eksportini rekord darajaga yetkazib, yilning dastlabki to'qqiz oyida 60 mlrd AQSh dollaridan ortiq eksport hajmini ta'minlagan. Janubiy Koreya esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarining mamlakat energiya balansidagi ulushini olti yil davomida qariyb ikki baravar oshirishga muvaffaq bo'lgan.

Ushbu natijalar qisqa muddatli choralar samarasi emas, balki davlat tomonidan olib borilgan izchil ekologik, sanoat va innovatsion siyosatning amaliy natijasidir. Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish dastlab ma'lum xarajatlarni talab qilsa-da, uzoq muddatda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi texnologik tarmoqlarni rivojlantirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni mustahkamlashning muhim omiliga aylanadi.

O'zbekiston mavjud tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va eksport salohiyatidan samarali foydalangan holda yashil iqtisodiyotni nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash vositasi, balki iqtisodiy o'sish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omiliga aylantirishi mumkin. Mamlakat uchun quyidagi yo'nalishlar alohida istiqbolga ega hisoblanadi.

Qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish. O'zbekiston yiliga 300 kundan ortiq quyoshli kunlarga ega bo'lib, bu quyosh energetikasini rivojlantirish uchun katta tabiiy ustunlik yaratadi. So'nggi yillarda Masdar, Total Eren va Saudi Aramco kabi yirik xalqaro kompaniyalar ishtirokida qator investitsion loyihalar



amalga oshirilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushining ortishi ishlab chiqarish korxonalarining energiya xarajatlarini kamaytirib, mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi. Natijada mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi oshadi hamda eksport salohiyati mustahkamlanadi.

Organik qishloq xo'jaligi va ekologik toza mahsulotlar eksporti. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa, meva-sabzavot eksportini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. 2025-yilda meva eksporti qiymat jihatidan 36,9 foizga oshgani ushbu tarmoqning yuqori salohiyatini tasdiqlaydi. Organik sertifikatlash tizimini rivojlantirish, xalqaro fitosanitar va ekologik standartlarga moslashish hamda mahsulotlarning qo'shilgan qiymatini oshirish orqali eksport hajmini yanada kengaytirish mumkin. Bunday yondashuv, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq bozorlarida ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoatni modernizatsiya qilish va CBAM talablariga moslashish. Metallurgiya, kimyo va to'qimachilik tarmoqlarida energiya samaradorligini oshiruvchi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ikki tomonlama natija beradi. Bir tomondan, ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi va resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi. Ikkinchi tomondan, korxonalar Yevropa Ittifoqining Uglarod Chegarasini Tartibga Solish Mexanizmi (CBAM) talablariga moslashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, po'lat va o'g'it ishlab chiqarish tarmoqlarida uglarod emissiyalarini monitoring qilish, hisobot yuritish va sertifikatlashtirish tizimlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yashil moliya va xalqaro sertifikatlash tizimlarini rivojlantirish. Xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun korxonalar ekologik va ijtimoiy mas'uliyat standartlariga moslashishi zarur. ISO 14001, ESG tamoyillari va karbon neytralligi standartlarini joriy etgan korxonalar investorlar va xorijiy hamkorlar nazarida yuqori ishonchga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bunday korxonalar uchun Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan taqdim etilayotgan yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Biroq yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni qator muammolar va cheklovlar bilan ham bog'liq. Avvalo, zamonaviy ekologik texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish katta moliyaviy mablag'larni talab etadi. Shuningdek, malakali kadrlar yetishmasligi, ekologik boshqaruv va monitoring tizimlarining to'liq shakllanmaganligi hamda ekologik madaniyat darajasining yetarli emasligi ushbu jarayonni sekinlashtiruvchi omillar hisoblanadi.

Shu sababli davlat tomonidan yashil transformatsiyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli ekologik kreditlar va investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bunda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va uni O'zbekiston iqtisodiyotining xususiyatlariga moslashtirish yashil eksportni rivojlantirish hamda mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda O'zbekistonning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va eksport barqarorligini ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Jahon tajribasi ekologik standartlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etgan mamlakatlar yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirib, global bozorlardagi mavqegini mustahkamlayotganini tasdiqlaydi.

Tahlillar O'zbekiston eksportining ayrim tarmoqlari, xususan, metallurgiya, kimyo va o'g'it sanoati CBAM talablari ta'siriga duch kelishini ko'rsatdi. Shu sababli korxonalarda karbon emissiyalarini hisobga olish tizimini joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va zamonaviy ekologik texnologiyalarni keng tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energetika, organik qishloq xo'jaligi, yashil moliya va xalqaro ekologik sertifikatlash tizimlarini rivojlantirish O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish hamda yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur yo'nalishlarda izchil siyosat yuritish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Carbon Brief. (2025, July). *China's clean-energy exports in 2024 alone will cut overseas CO₂ by 1%*. <https://www.carbonbrief.org>
2. Ember. (2025, November). *China's clean technology exports hit record high in August, reaching \$20bn*. <https://ember-energy.org/latest-updates/chinas-clean-technology-exports-hit-record-high-in-august-reaching-20bn/>



3. European Commission. (2026). *Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM)*. https://taxation-customs.ec.europa.eu/carbon-border-adjustment-mechanism_en
4. Glottis Global. (2025, November 19). *China's battery export boom in 2025: Key trends and insights*. <https://glottis.global/2025/11/19/chinas-battery-export-boom-in-2025-key-trends-and-insights/>
5. Korea Ministry of Trade, Industry and Energy. (2025). *11th Basic Plan for Long-term Supply & Demand; IEA Korea 2025 Energy Policy Review*. <https://iea.blob.core.windows.net/assets/21b0a0d2-6b9a-435d-b591-c65fb76399d6/Korea2025.pdf>
6. Mirzaaliyev, A. (2026). Yashil iqtisodiyot va ekologik barqaror rivojlanishning iqtisodiy ahamiyati. *Ustozlar Uchun*, 90(1), 352–356.
7. Newton, A. C., & Cantarello, E. (2014). *An introduction to the green economy*. Earthscan.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026, January 29). *2025-yil tashqi savdo yakunlari*. *Gazeta.uz*. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/29/trade-2025/>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2024). *To'qimachilik eksporti, 2024-yil yanvar–iyul*. <https://stat.uz>
10. UNEP. (2018). *Green economy*. United Nations Environment Programme. <https://www.unep.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/supporting-resource-efficiency/green-economy>
11. UNESCO. (2010). *Green economy*. <https://www.unesco.org/>
12. Umweltbundesamt. (2025). *GreenTech Atlas 2025*. <https://www.umweltbundesamt.de/en/topics/economics-consumption/greentech-atlas-2025>
13. World Bank. (2012). *Inclusive green growth: The pathway to sustainable development*. World Bank.
14. Zhironkin, S., & Cehlár, M. (2022). Green economy and sustainable development: The outlook. *Energies*, 15(3), Article 1167. <https://doi.org/10.3390/en15031167>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>